



INVESTITSION LOYIHALAR RISKINI BAHOLASH VA KAMAYTIRISH YULLARI

*Sam ISI "Investitsiyalar va
innovatsiyalar" kafedrası magistranti
Ergasheva Aziza*

Kirish

Iqtisodiy kategoriya sifatida risk (xatar) noaniqlik sharoitida foyda (ijobiy) yoki zarar (salbiy) keltirish ehtimoli sifatida namoyon bo‘ladi. Zamonaviy moliyaviy operatsion boshqaruv investitsion loyihalarning xatar darajasini miqdoriy baholashni, uni tasniflashni va muvaffaqiyatsizlik ehtimolini kamaytirish uchun kompleks chora-tadbirlarni talab qiladi. Mazkur ishda investitsiya jarayonidagi xatarlarni boshqarishning nazariy-metodologik asoslari o‘rganilgan.

Materiallar va Usullar

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida investitsion muhitning uchta asosiy omili (investitsiya quvvati, sharoitlari va tavakkalchiligi) hamda loyiha xatarlarini ko‘p mezonli tasniflash yondashuvi tanlangan. Tahlil quyidagi uch bosqichli tasniflash tizimiga asoslanadi:

Loyiha faoliyati bosqichlari bo‘yicha (investitsiyalash oldi, investitsiyalash, ishlab chiqarish).

Ta’sir etish imkoniyati bo‘yicha (ichki va tashqi risklar).

Himoyalani sh imkoniyati bo‘yicha (sug‘urtalanadigan va sug‘urtalanmaydigan risklar).



Qolaversa, loyiha faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi 13 ta keng tarqalgan risk guruhlarini (masalan, moliyaviy, siyosiy, boshqaruv, fors-major risklari) aniqlangan.

Natijalar

Olib borilgan nazariy munozara natijasida, investitsion loyihalarni amalga oshirishdagi asosiy qiyinchilik risk va noaniqlik tushunchalarini aniq ajratishda ekanligi tasdiqlandi. Risk natijalarning ehtimolligi mavjud ma’lumotlar asosida baholanishi mumkin bo‘lgan holatlarni anglatadi, noaniqlik esa (masalan, inflyatsiya yoki siyosiy o‘zgarishlar haqidagi to‘liq bo‘lmagan ma’lumot) ehtimollikni aniq hisoblash mumkin bo‘lmagan subyektiv holatdir. Tahlil etilgan klassifikatsiya (tasnif) risklarni kompleks boshqarish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa

Korxonalar faqatgina integratsiyalashgan risk-menejment tizimlarini (Risk-Management) joriy etish orqali loyiha tashabbuslarini amalga oshirishdagi xatolar ehtimolini kamaytirishi mumkin. Xatarlarni boshqarishning muvaffaqiyati ularning obyektiv va subyektiv omillarini hisobga olgan holda avvalboshdan yuzaga kelish sabablarini aniqlash va shundan so‘ng ularga ta’sir etuvchi omillarni boshqarish (kamaytirish) yoki xatarlarni sug‘urtalash/diversifikatsiya yo‘llarini izlashga bog‘liqdir. Bu, ayniqsa, o‘tish iqtisodiyotida bo‘lgan va ichki-tashqi investitsiyalarni jalb qilayotgan O‘zbekiston kabi davlatlar uchun hal qiluvchi hayotiy vazifa hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Pardaev, M. Q., Xoliqulov, A. N., & Jumayeva, G. (2019). Investitsion loyihalar tahlili. Fan va texnologiya.



2. O‘zbekiston Respublikasi. (2019). Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risidagi Qonun (O‘RQ-531-son, 2019 yil 25 dekabr).

3. Damodaran, A. (2018). Investitsionnaya otsenka: Instrumenti i metodi otsenki lyubix aktivov (7-nashr). Alpina Pabliher. (Original: Damodaran, A. *Investment Valuation: Tools and Techniques for Determining the Value of Any Asset*).